



RAVSHAN DOSTONIDA XAT MATIVI

Boltayeva Iroda

Nukus davlat pedagogika instituti Turkiy tillar
fakulteti o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 2-kurs talabasi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.15179787>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 01-Aprel 2025 yil
Ma'qullandi: 05- Aprel 2025 yil
Nashr qilindi: 09-Aprel 2025 yil

KEYWORDS

*maktub, xat, vositachi, mayna,
doston, syujet, fitna, qutqaruv,
xalq og'zaki ijodi.*

ABSTRACT

*Ushbu maqolada "Ravshan" dostoni misolida xat
motivining mazmuni, uning asar voqealar rivojiga ta'siri
tahlil qilinadi. Xat orqali qahramonlarning taqdiri
qanday o'zgarishi va syujetda qanday o'rin tutishi
yoritiladi.*

Xat insoniyat tarixida qadimdan axborot almashish vositasi sifatida muhim ahamiyat kasb etgan. U insonlar o'rtasidagi aloqa vositasi bo'lib, ko'pincha shaxsiy, siyosiy yoki ijtimoiy ma'lumotlarni uzatishda foydalanilgan. Xususan, xalq og'zaki ijodida, jumladan, dostonlarda xat motivi keng qo'llanilgan. Dostonlarda xat odatda qahramonlar o'rtasidagi aloqa vositasi bo'lib, syujet rivojiga bevosita ta'sir qiladi. U ko'pincha qahramonlarning hayot-mamot masalalarida muhim rol o'ynaydi. Xat insoniyat tarixida nafaqat aloqa vositasi, balki madaniyat va adabiyotning ajralmas qismi bo'lib kelgan. Xalq dostonlarida xatlar qahramonlar hayotini o'zgartiruvchi kuchga ega bo'lib, ularning taqdiri va voqealar rivojida muhim rol o'ynaydi. Shu bois, xat motivi og'zaki ijodda ham, yozma adabiyotda ham doimiy ahamiyat kasb etib kelmoqda. "Ravshan" dostonida ham xat syujetning muhim qismi bo'lib, voqealar rivojida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Xat – atamasi biror kishiga yozib yuborilgan ma'lumotni masofadan uzatish va uni o'z vaqtida yetkazish uchun foydalanishga imkon beruvchi belgilar bilan nutqni mustahkamlash tizimi. Odatda xat qog'ozga matn sifatida yoziladi. Hozirgi vaqtda xat elektron shaklda yoki SMS orqali yaratilgan va uzatiladigan xabar sifatida ham tushuniladi. Avvallari insonlar xat orqali o'zlarining fikr-mulohaza va shunga o'xshash qandaydir muhim xabarlarni bayon etishgan. Buning dali sifatida ko'plab asarlar va dostonlarda uchratishimiz mumkin. Har bir asrdagi xat alohida o'rin tutadi va har asarda turlicha vazifada kelishi mumkin. Xalq og'zaki ijodida (folklorida) xat muhim motivlardan bo'lib, ko'pincha qahramonlar o'rtasidagi aloqa, fitna, sadoqat yoki iztirobni ifodalash vositasi sifatida ishlatiladi. Uchratganimizdek, xat – doston syujetni rivojlantiruvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Asosiy qism: "Ravshan" badiiy jihatdan g'oyat pishiq ishqiy-sarguzasht dostonidir. Xalq orasida u ko'p yillardan beri mashhur. Dostonning sayqal topib, badiiy go'zal asar shaklini olishida Jumanbulbul va Ergash baxshilarning alohida xizmatlari bor. Doston o'zining hayajonli syujeti, yorqin obrazlari va ohangdor ifodasi bilan tinglovchilar qalbidan chuqur joy olgan. Uning qahramonlari va boshqa personajlar o'zbek xalq og'zaki ijodining eng go'zal

timsollaridan biri hisoblanadi. Dostonda sevgi, sadoqat, mardlik va adolat uchun kurash kabi mavzular ustuvor bo'lib, Ravshanning jasorati va qahramonlik xatti-harakatlari asar mohiyatini yanada boyitadi. Ayniqsa, voqealar rivoji davomida qahramonlarning bosib o'tgan sinovlari, ularning ichki kechinmalari va taqdiri o'quvchi yoki tinglovchini befarq qoldirmaydi.

Doston qahramonlari: Hasanxon va Ravshan pok qabli, adolatparvar, nohaqliklarga qarshi kurashuvchi, hamisha ezgulikka va haqqoniylikka intiluvchi mard kishilardir. Ravshan Zulxumorni qo'lga kiritish uchun ikki oylik yo'lga yolg'iz o'zi ketadi. Lekin u yosh va tajribasizligi uchun Qoraxon tomonidan osongina bandi etiladi. Podshoh yigitni osishga buyurdi. Shunda Shirvon kattalari yigitni o'ldirishga shoshmaslik va unga qirq kun muhlat berib zindonga tashlash kerakligini, so'ng chiqarib Qoraxonning diniga o'tishini so'rab u qabul qilganidan keyin kiyov qilishini maslahat berishadi. Bu podshohga ma'qul kelib, Ravshan zindonga tashlanadi. Zulxumor va qizlari hovliga qamab tashlandi, tevaragiga besh yuz sarboz qorovul qo'yildi.

Zulxumor qizlari orqali yashirincha lahmchi topadi. Hovlidan zindon boshigacha lahm kavlatib, Ravshandan xabar olib turadi. Qiz u bilan maslahatlashib uning ota - onasiga xat yozadi.

Zulxumoroyim xatni o'z qo'li bilan xatni bitdi: "Ravshanbekni qirq kunlik bandi qilib qilib zindonga soldi, qirq kundan so'ng dorga osmoqchi, boshini kesmoqchi, go'shtini poralab osmoqchi. Zindon qilingandan so'ng Zulxumor oyimni ham bir hovliga qamab, besh yuz soqchi qo'yib, dalaga chiqarmay qo'ydi. Zulxumor axiri chidayolmay, bir lahmchi topib, hovli ichidan lahim urib, zindon boshidan chiqdi. Yigirma kun o'tgach zindonda gaplashib, shu maynani yigirmanchi oqshomda uchirdik. Agar shu yigirma kunning ichida kelgan odam odam bo'lsa, Ravshanni ko'rib qoladi, bo'lmasa yo'q. Yigirma birlamchi kuni Shirvonning bozori, bozorning o'rtasi dori shu yerda Ravshanbekning gavda-suyagini yig'ib olib kestin" - deb yozadi. Mayna Chambilga yetib boradi va Hasanxonning tomiga qo'nadi-yu o'g'lini o'ylab kuyunib yurgan xon Dallini ko'ridi va onasi ekanini bilib qattiq sayrab maktubni yetkazadi. Xatni olib o'qib, hamma voqeadan habar topgan Hasanxon Go'ro'g'lining G'irko'k otini minib, zudlik bilan o'g'lini qutqarishga ketishga qaror qiladi. Xatda ayon bo'lishicha, Qoraxon bergan qirq kunlik maslahatning roppa-rosa yigirma kuni o'tgan. Yigirma kundan keyin Ravshan yo begona dinga kirishi yo dorga olisilishi kerak edi. Hasanxon Go'ro'g'lidan fotiha olib Shirvonga yetadi. O'g'lini dordan qutqarib, Qoraxon podshonining xazinasini bo'shatib, ochlarni to'ydirib, yalong'ochlarni kiyintirib, qirq kecha-yu qirq kunduz to'y qilib Zulxumoroyini Ravshanxonga nikohlab beradi.

Xulosa: "Ravshan" dostonidagi xat motivi syujet rivojida markaziy o'rin tutadi. Ushbu xat orqali voqealar o'zgaradi, Ravshan qutqariladi va doston baxtli yakun topadi. Xat insoniyat tarixida ham, badiiy asarlarda ham muhim axborot uzatish vositasi bo'lib kelgan. Qadim zamonlarda xatlar turli xil usullar, jumladan, qushlar orqali yetkazilgan. Mayna qushi ushbu dostonning ijobiy obrazlaridan biri bo'lib, xatni manziliga yetkazish orqali Ravshanning hayotini saqlab qolishda muhim ro'l o'ynaydi. Doston bizga insonlar o'rtasidagi ishonch, fidoyilik va matonatning qanchalik muhim ekanini ko'rsatib beradi. Shu bois "Ravshan" dostoni nafaqat ishqiy va sarguzasht xarakterga ega, balki unda axloqiy va tarbiyaviy g'oyalar ham chuqur aks etgan. Bundan tashqari, doston xalqning orzu-umidlari, dunyoqarashi va axloqiy qarashlarini o'zida mujassam etadi. Undagi voqealar qanchalik sarguzasht va qiziqarli bo'lmasin, asarning asosiy mohiyati - insoniylik, adolat va haqiqatni ulug'lashga qaratilgan.

Haqiqatan ham xat inson hayoti uchun muhim vositalardan biri ekanini ushbu dostonda ishtirok etgan xat orqali bilib olishimiz mumkin. Balki Zulxumor xat orqali bo'lgan voqealarni bayon etmaganida Ravshan o'zga dinga o'tmasligini aytganidan so'ng otasi yoki boshqalar kelib qutqarmaganida dorga osilgan bo'lar edi. Dostondagi xat Ravshanning hayotini qutqarish uchun asos bo'lgan desak xato bo'lmaydi. Ko'rib turganimizdek hozirgiday zamonaviy texnikalar mavjud bo'lmagan vaqtda turli xil qushlar va pochta hizmati orqali yetkazilgan. Xabarchi qushlar ijobiy yoki salbiy xususiyatga egadir. Mayna xalq dostonlarida donishmandlik va sadoqat timsoli sifatida gavdalanadi. U nafaqat xat tashuvchi, balki qahramonlar o'rtasidagi ishonchli vositachi sifatida namoyon bo'ladi. Zulxumor maynani xat yetkazish uchun tanlash orqali uning sodiqligi va ishonchliligiga tayanadi. Dostonlarda vositachilik vazifasi juda muhim bo'lib, xabarni to'g'ri yetkazish yoki noto'g'ri talqin qilish qahramonlarning taqdirini o'zgartirishi mumkin. Mayna esa Zulxumorning xatini Ravshanga yetkazish orqali voqealar rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Uning oqilona harakati tufayli ikki sevishgan qalbi o'zaro bog'lanadi va ularning taqdiri to'g'ri yo'nalishda davom etadi. Bu holat dostonlarda vositachi obrazining naqadar mas'uliyatli ekanini ko'rsatadi. Mayna singari obrazlar orqali xalq og'zaki ijodida sadoqat, aqllilik va fidoyilik targ'ib qilinadi. Shu bois mayna dostonlarda nafaqat oddiy qush, balki ezgulik va ishonch ramzi sifatida talqin etiladi. Bu voqe doston rivojida muhim ahamiyatga ega, va doston yakuni yaxshilik bilan tugaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ravshanxon dostoni "Sharq" nashriyoti – Matbaa. Toshkent-2011
2. Nilufar Rasulova Adabiyotdan mukammal savol-javoblar kirobi I qism "Nurafshon ziyo yog'dusi" Toshkent-2018
3. Oxunjon Safarov O'zbek xalq og'zaki ijodi. Toshkent-2010
4. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Xat>
5. <https://oliymahad.uz/39976>